SPEAK PAL ILOVASINING ILOVADAN FOYDALANUVCHILAR MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENTLIGIGA TA’SIRINI O‘RGANISH

Nazarmatova Yorqinoy MAxmudaliyevna
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Bugungi kunda smartfonlar insonlar hayotida nafaqat aloqa vositasi sifatida, balki turli sohalarda keng qo‘llanilayotgan ko‘p funksiyali texnologik qurilmaga aylandi. Xususan, smartfonlardan ta’lim jarayonida foydalanish, o‘qitish va o‘rganish samaradorligini oshirish, shuningdek, bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishning eng zamonaviy va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi mobil texnologiyalar yordamida barcha soha vakillari xususan, olimlar, talabalar, ishbilarmonlar hamda til o‘rganishga ehtiyoj sezuvchi shaxslar ingliz tilini o‘rganishga hamda o‘z ko‘nikmalarini rivojlantirishga harakat qilmoqda. Mobil ilovalar yordamida til o‘rganish o‘z nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish istagida bo‘lganlarga butun dunyo bo‘ylab ayni shunday intilishdagi odamlar bilan ingliz tilida muloqot qilish imkonini beruvchi Speak Pal, Tandem, Hallo, Speak English, byTalk kabi ko‘plab ilovalarni taklif etadi. Ushbu tadqiqot Speak Pal ilovasida ingliz tilida so‘zlashish amaliyoti foydalanuvchilarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi, madaniyatlararo xabardorligi, bilimi va sezgirligining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatish-ko‘rsatmasligini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotga Speak Pal platformasidan faol foydalanadigan 120 nafar turli ta’lim yo‘nalishlarida tahsil oladigan, ingliz tilini B1, B2 va C1 darajasida biladigan talabalar jalb etildi. Ushbu tadqiqotda so‘rovnoma usulidan foydalanildi. Tadqiqot davomida ma’lumotlar ochiq savollar yordamida to‘plandi. Olingan natijalar “Speak Pal” ilovasining foydalanuvchilarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish, shuningdek, madaniyatlararo xabardorlik, bilim hamda sezgirlikni oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi.

Kalit so‘zlar: *Mobil ilovalar orqali til o‘rganish, nutq mahorati, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi, Speak Pal ilovasi, texnologiyalar*

KIRISH

Hozirgi kunda hayotimizni texnologiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Texnologiyalardan har kunlik ish faoliyatimizda, kundalik hayotimizda foydalaniladi. Texnologik taraqqiyotning barcha sohalarga, jumladan, ta’limga ham ulkan ta’sir ko‘rsatayotganini inkor etib bo‘lmaydi. Odamlarning o‘rganish uslublari texnologik yutuqlar ta’sirida tobora o‘zgarib bormoqda. Ushbu o‘zgarishlar natijasida ta’limda mobil qurilmalar yordamida til o‘rganish, smartfon vositasida til o‘rganish kabi yangi paradigmalar yuzaga keldi. Endilikda zamonaviy texnologiyalar tufayli tilni faqat sinfxonada emas balki, istalgan paytda, istalgan joyda o ‘rganish imkoniyati bor. Natijada o‘rganuvchilar til o‘rganish joyi va vaqtini o‘zlari belgilash imkoniyatiga ega bo‘lishdi, qolaversa, ularda avtomatizm, o‘zini o‘zi boshqarish va mustaqil harakat qilish ko‘nikmalari shakllandi. Shunga qaramay, til o‘rganish mashaqqatli va gohida zerikarli jarayondir, chunki bugungi globallashayotgan dunyoda bu jarayon to‘rtta til ko‘nikmasi va madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini puxta egallashni talab qiladi, deb qaraladi.

Gapirish ko‘nikmasi til o‘rganish jarayonidagi eng muhim kompetensiyalardan biri bo‘lib, u boshqa til ko‘nikmalariga nisbatan murakkab va ko‘proq xavotir uyg‘otuvchi jihatlarga ega. Buning asosiy sababi shundaki, samarali og‘zaki muloqotni amalga oshirish uchun madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi kabi bir qator quyi ko‘nikmalarni egallash talab etiladi.

Speak Pal - bu ingliz tilida so‘zlashishga mo‘ljallangan ilova bo‘lib, u foydalanuvchilarga dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan odamlar bilan bepul onlayn muloqot qilish imkoniyatini taqdim etadi.

Ushbu ilovadan foydalanuvchilarning asosiy maqsadi ingliz tilida so‘zlashishni rivojlantirish va gapirish qo‘rquvini yengish uchun nutqni mashq qilishdir. Shunga qaramay, til va madaniyat bir-biriga shu qadar chambarchas bog‘liqki, samarali muloqot madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini talab qiladi. Shu sababli, Speak Pal ilovasi foydalanuvchilarga turli madaniyat vakillarining an’analari, qadriyatlari va dunyoqarashlari bilan tanishish imkonini yaratadi. Natijada, ushbu ilova foydalanuvchilarning madaniyatlararo xabardorligini oshirish va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ingliz tili – xalqaro til (EIL) tushunchasi turli ona tillarda so‘zlashuvchilar o‘rtasidagi global aloqa vositasi sifatida ingliz tilidan foydalanishni anglatadi. EIL ingliz tilining xalqaro maydondagi lingua franka (lingva franka – ona tili bir xil bo‘lmagan kishilar guruhlari o‘rtasida muloqot vositasi sifatida qo‘llanadigan, o‘zaro tushunarli bo‘lgan har qanday til) sifatidagi rolini ta’kidlab, bunda asosiy e’tiborni ona tilida so‘zlashuvchilar me’yorlariga rioya qilishga emas, balki samarali muloqot va o‘zaro anglashuvga qaratadi. Til ta’limida EIL ingliz tilining global turlari haqidagi xabardorlikni oshiradi hamda o‘rganuvchilarni madaniyatlararo muloqot va moslashuvchanlik strategiyalarini rivojlantirishga rag‘batlantiradi.

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi va madaniyatlararo xabardorlik.

MMK nafaqat lingvistik kompetensiyani, balki tildan turli ijtimoiy vaziyatlarda o‘rinli foydalana olish qobiliyatini ham ta’kidlaydi.

Bundan tashqari, bu akkulturatsiya emas, chunki u o‘rganuvchilardan o‘rganilayotgan til sohiblariga taqlid qilish orqali ularning madaniyatini singdirishni talab qilmaydi; aksincha, o‘rganuvchilarda tafovutlarga nisbatan bag‘rikenglik bilan birga o‘z shaxsiyati va boshqa turli madaniyatlarning o‘ziga xosligini anglash hissini shakllantiradi.

Smitning (1976) fikricha, o‘quvchilar o‘z nuqtayi nazarlarini taqdim etish va boshqa odamlarning madaniyatini muhokama qilmaslik uchun samarali madaniyatlararo muloqot ko‘nikmasini egallashlari lozim.

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi yordamida o‘quvchilar stereotiplar va etnosentrik qarashlardan yiroq bo‘ladilar.

O‘quvchilarning boshqa jamoalarning mahsulotlari, amaliyotlari va dunyoqarashlari haqidagi xabardorligi ortgani sari, ularda o‘zaro tushunish, hurmat va bag‘rikenglik rivojlanadi, bular esa globallashgan dunyoning bugungi kundagi zaruriyatlaridir.

Mobil qurilmalar yordamida til o‘rganish

Miangah va Nezarat (2012) ta’kidlashicha, mobil telefonlar inson hayotidagi boshqa aloqa vositalariga qaraganda muhimroq o‘rin tutadi, chunki inson undan nimadir o‘rganish uchun ham foydalana oladi. Mobil ilovalar o‘quvchilarga o‘zlarining nutq, tinglab tushunish va o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun son-sanoqsiz imkoniyatlarni taqdim etadi. Stockwell (2010) mobil qurilmalar orqali taqdim etilgan o‘quv materiallari o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirishi va o‘quv resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishini aniqlagan. Burston (2015) mobil qurilmalar yordamida til o‘rganish lug‘at boyligini oshirish, tinglab tushunish va o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ta’kidlaydi. Texnologiya inson hayotining barcha jabhalariga kirib bordi. Sharifianning (2013) fikricha, ingliz tili xalqaro til (EIL) sifatida turli lisoniy va madaniy kelib chiqishga ega insonlarga samarali muloqot qilish imkonini berib, madaniyatlararo aloqalarda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ingliz tili global muloqot vositasiga aylanib borar ekan, til o‘rganuvchilar madaniyatlararo muvaffaqiyatli aloqa o‘rnatish uchun nafaqat lingvistik, balki madaniyatlararo kompetensiyani ham rivojlantirishi zarur.

Speak Pal ilovasi

Texnologiya shu darajada rivojlandiki, u o‘rganuvchilarga chet tillarini o‘rganish uchun onlayn va mobil ilovalarni taklif qila boshladi. Bu ilovalar asosan shaxsiy maqsadlarda qo‘llanilsa-da, ba’zan ijtimoiy yo‘nalishda ishlatish mumkin bo‘lgan xususiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin (Kukulska-Hulme, 2016). Speak Pal - ingliz tilida so‘zlashuv platformasi bo‘lib, unda siz nutqingizni mashq qilish uchun suhbatdoshlar topa olasiz. Bu yerda o‘zingiz bilan bir xil til darajasidagi ko‘plab suhbatdoshlarni uchratishingiz mumkin.

Ilova foydalanuvchilarining asosiy maqsadi - ushbu platformada mos sheriklar bilan amaliyot o‘tash orqali nutq qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Speak Pal platformasi ma’lumotiga ko‘ra hozirgi kunda ilova foydalanuvchilarining soni 1 000 000 dan ortiq hamda 150 dan ortiq davlat vakillari faol foydalanishadi. Unga ingliz tilida so‘zlashuvchi davlatlar hamda Hindiston, Indoneziya, Turkiya kabi mamlakatlardan, shuningdek, Misr, Eron, Iroq, Bangladesh, Malayziya, Suriya, Birlashgan Arab Amirliklari, Jazoir, Ukraina, Rossiya, Italiya, Ispaniya, Meksika, O‘zbekiston, Singapur, Xitoy, Yaponiya, Tailand, Koreya, Germaniya kabi ingliz tili ona tili bo‘lmagan boshqa davlatlardan bo‘lgan foydalanuvchilar mavjud.

Ilova foydalanuvchilari o‘zlari, ishi, ta’limi, qadriyatlari va e’tiqodlari haqida so‘zlashni o‘rganadilar, qolaversa, suhbatdoshlarining madaniyati, turmush tarzi va dunyoqarashi bilan tanishadilar. Shu bilan birga, ular turli mamlakatlardan bo‘lgan va turlicha talaffuzga ega insonlar bilan muloqot qilish orqali tinglab tushunish qobiliyatini rivojlantiradilar. Biroq, ushbu ilovadan ingliz tilini B1, B2, C1, C2 darajalarida biladigan foydalanuvchilarning foydalanishi tavsiya etiladi. Ilovada ingliz tilini A1 va A2 darajalarida biladigan foydalanuvchilar soni ham ko’pchilikni tashkil qiladi. Buni til o‘rganishni endigina boshlayotgan o‘quvchilarning mobil ilovaga bo‘lgan qiziqish ortib borayotgani bilan izohlash mumkin.

Foydalanuvchilar o‘z darajalarini ro‘yxatdan o‘tish vaqtida ko‘rsatilgan daraja tavsiflarini o‘qib yoki onlayn test yechib aniqlashlari mumkin. Agar suhbatdoshlardan

biri o‘zini nomaqbul tutsa, ikkinchi taraf uning ustidan shikoyat qilishi yoki uni bloklashi mumkin.

Har bir foydalanuvchi profiliga suratlar yuklab, o‘zi haqida ma’lumot kiritishi mumkin. Foydalanuvchilar o‘z suhbatdoshini do‘st sifatida qo‘shishlari mumkin. Buni ham suhbat davomida, ham suhbatdan so‘ng “Kontaktlar” bo‘limi orqali amalga oshirish mumkin. Suhbatdosh onlayn foydalanuvchilar ro‘yxatida qayta paydo bo‘lganda, unga taklifnoma yuborish imkoniyati mavjud. Foydalanuvchilar “Kontaktlar” menyusidagi “Do‘stlar” yorlig‘i orqali qaysi do‘stlari onlayn va suhbatga tayyor ekanini ko‘ra oladilar.

Foydalanuvchining reytingi unga ijobiy baho bergan suhbatdoshlar soniga qarab shakllanadi. Ya’ni, siz qancha ko‘p odamga ma’qul kelsangiz, reytingingiz shunchalik yuqori bo‘ladi. Ilovadan foydalanuvchilarning suhbatlari soni boshqa foydalanuvchilarga ham ko ‘rinib turadi. Suhbatdoshlar suhbatdan so‘ng bir-birlari haqida izoh qoldirishlari mumkin. Bu izohlarni boshqa foydalanuvchilar ham ko‘ra oladi va tekshirishi mumkin. Reytingi yuqori bo‘lgan foydalanuvchilarning suhbatga taklif olish ehtimoli ko‘proq. Foydalanuvchilar minglab kishilar orasidan o‘zlariga suhbatdosh tanlab, unga taklifnoma yuborishlari yoki “Mukammal suhbatdosh topish” bo‘limidan foydalanishlari mumkin. Ushbu bo‘lim yordamida ilova foydalanuvchi uchun eng munosib suhbatdoshni tanlab, unga taklifnoma yuboradi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot ingliz tilida so‘zlashuvni mashq qilishga mo‘ljallangan Speak Pal ilovasini o‘rganishni hamda uning foydalanuvchilarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasiga samaradorligini tahlil qilishni maqsad qiladi. Tadqiqotda ma’lumotlarni yig‘ish vositasi sifatida so‘rovnoma metodidan foydalanildi.

Tadqiqot savollari

1. Ushbu ilova o‘z madaniyatingiz va boshqa madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni tushunishga yordam berdimi?
2. Ushbu ilova o‘z madaniyatingiz va boshqa madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni qadrlash hissingizni rivojlantirdimi?
3. Ushbu ilova sizning madaniy xilma-xillikka ochiqligingizni va dunyoqarashingiz kengligini oshirdimi?
4. Ushbu ilova turli madaniyatlar haqidagi stereotip va noto‘g‘ri tasavvurlaringizni kamaytirishga yordam berdimi?
5. Ushbu ilova sizning turli madaniyatlarni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqingizni oshirdimi?

Tadqiqot ishtirokchilari

Ushbu tadqiqotga Speak Pal platformasidan faol foydalanuvchi 120 nafar ishtirokchi jalb qilindi. Ular turli ta`lim yo‘nalishidan bo‘lgan, ingliz tilini B2 va C1 darajasida o‘rganayotgan talabalardir.

Ma’lumot yig‘ish vostalari va tahlil

Mazkur tadqiqotda ma’lumotlarni yig‘ish uchun so‘rovnoma metodidan foydalanildi. So‘rovnoma Speak Pal ilovasidan foydalanish tajribasi hamda uning foydalanuvchilarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasiga ta’sirini aniqlashga

qaratilgan beshta savoldan iborat bo‘ldi. Ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan javoblar tadqiqotning asosiy ma’lumotlar manbai sifatida xizmat qildi.

To‘plangan ma’lumotlarni tahlil qilishda kontent-tahlil usulidan foydalanildi. Dastlab, respondentlarning javoblari bir necha marotaba o‘qib chiqildi va tadqiqot maqsadlariga muvofiqligi aniqlandi. Shundan so‘ng javoblarda uchraydigan muhim fikrlar, so‘zlar va iboralar ajratib olinib, ularning mazmuniga ko‘ra turli mavzu va kategoriyalarga tasniflandi. Keyingi bosqichda ushbu kategoriyalar kodlashtirildi hamda olingan natijalar Speak Pal ilovasining foydalanuvchilarining madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishdagi o‘rnini aniqlash nuqtayi nazaridan tahlil qilindi.

NATIJALAR

№1-jadval

Tadqiqot ishtirokchilarining tavsifiy statistik ko‘rsatkichlari

		Ha	Yo‘q	Jami	Ijobiy javoblar %
1	Ushbu ilova o‘z madaniyatim va boshqa madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni tushunishga yordam berdi	115	5	120	95,83
2	Ushbu ilova o‘z madaniyatim va boshqa madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni qadrlash hissini oshirdi	114	6	120	95
3	Ushbu ilova madaniy xilma-xillikka ochiqligimni va dunyoqarashimni kengligini oshirdi	114	6	120	95
4	Ushbu ilova turli madaniyatlar haqidagi stereotip va noto‘g‘ri tasavvurlarimni kamaytirishga yordam berdi	115	5	120	95,83
5	Ushbu ilova turli madaniyatlarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishimni oshirdi	120	0	120	100

MUHOKAMA

Birinchi tadqiqot savolini o‘rganish maqsadida barcha 120 nafar ishtirokchiga “Ushbu ilova o‘z madaniyatingiz va boshqa madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni tushunishga yordam berdimi?” degan savol berildi. Tadqiqot natijalarining tahliliga ko‘ra, Speak Pal foydalanuvchilarining 95,83 foizi ilova yordamida o‘z madaniyati va boshqa madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni tushunishga yordam bergan deb hisoblaydi. Biroq besh nafar ishtirokchi ko‘pchilikning bu fikriga qo‘shilmadi.

Birinchi savolga 120 nafar ishtirokchidan 115 nafari ijobiy javob berdi. Ular orasida ko‘plab qiziqarli javoblar bor. Shulardan birini Dildora bergan. Dildoraning javobi shu jihati bilan juda e’tiborga loyiqki, u bu platformada suhbatlashishdan oldin turli mamlakatlar o‘rtasidagi madaniy farqlardan bexabar bo‘lgan.

“Speak Pal ilovasidan foydalanishdan oldin boshqa madaniyatlar haqida ko‘p narsa bilmas edim. Ilova orqali turli mamlakatlardan bo‘lgan insonlar bilan muloqot qilish jarayonida ularning urf-odatlari, qadriyatlari va turmush tarzi bilan yaqindan tanishdim. Bu tajriba menga madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni yaxshiroq tushunishni o‘rgatdi”

Ikkinchi tadqiqot savolini o‘rganish uchun barcha 120 nafar ishtirokchiga

"Ushbu ilova sizning madaniyatingiz va boshqa madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni qadrlash hissini oshirdimi?" degan savol berildi. Foydalanuvchilarning 95 foizi Speak Pal ilovasi ularning madaniy farqlarni qadrlash hissini oshirdi degan fikrni bildirishgan. Quyida Fotima bildirgan fikr berilgan.

“Speak Pal ilovasi orqali turli mamlakatlardan bo‘lgan insonlar bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ldim. Suhbatlar davomida har bir madaniyatning o‘ziga xos qadriyatlari, an’analari va dunyoqarashi borligini angladim. Bu tajriba menga madaniy farqlarni hurmat qilish va ularni insoniyatning muhim boyligi sifatida qadrlashni o‘rgatdi”.

“Mazkur ilova sizning madaniy xilma-xillikka nisbatan ochiqligingizni va dunyoqarashingizni kengligini oshirdimi?” degan uchinchi savolga 120 nafar foydalanuvchidan 114 nafari ijobiy javob berdi. Bu shuni anglatadiki, foydalanuvchilarning 95 foizi Speak Pal ilovasini qo‘llagach, o‘zlarida madaniy xilma-xillikka nisbatan ochiqlik va dunyoqarashini kenglini oshirdi, deb hisoblaydi.

Murodning fikricha, u ushbu platformadagi suhbatlar yordamida yanada moslashuvchan bo‘lgan.

“Men ancha moslashuvchan va bag‘rikeng insonga aylandim, turli xil qarashlarni qabul qila boshladim”. Mudorning qo‘shimcha qilishicha ushbu platforma sharofati bilan uning dunyoqarashi kengayib, yangicha fikrlay boshlagan.

“Ushbu ilova turli madaniyatlar haqidagi stereotip va noto‘g‘ri tasavvurlaringizni kamaytirishga yordam berdimi?" degan so’rovnomaning to‘rtinchi savoliga 120 nafar ishtirokchidan 115 nafari ijobiy javob berdi. Demak, tadqitot tahliliga ko‘ra 95,83 foiz foydalanuvchi ilova ularning turli madaniyatlar haqidagi stereotip va noto‘g‘ri tasavvurlarini kamaytirishga yordam berdi deb hisoblaydi. Ilovadan foydalanuvchilarning 5 nafaridan esa salbiy javoblar va izohlar qabul qilindi. Quyida Maftunaning javobi berilgan.

“Ushbu ilovadan foydalanish davomida salbiy stereotiplarim ko‘paydi, chunki turli millat vakillarini yaqindan bilish imkoniyatiga ega bo‘ldim. Bu ilovadan foydalanishdan oldin dunyodagi barcha millatlarga nisbatan ijobiy fikrda edim. Biroq, ba’zi millat vakillari bilan suhbatlashgach, hurofotchi, konservativ va qo‘pol odamlar degan taassurot qoldirdi”.

Ushbu tadqiqotda qatnashgan barcha ilova foydalanuvchilari oxirgi savolga ijobiy javob berdi, bu esa ushbu ilovadan faol foydalangandan so‘ng ularning turli madaniyatlarni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqi ortganini anglatadi.

Malik: “Bir nechta odam bilan suhbatlashib, ularning tarixi, madaniyati, taomlari va diniy marosimlari haqida yangiliklarni bilib olgach, menda turli mamlakatlarga nisbatan qiziqish kuchaydi. Shu sababli bu platformada ko‘proq odamlar bilan gaplashadigan va ko‘proq vaqt o‘tkazadigan bo‘ldim”.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot ingliz tilida so‘zlashuv ilovasining foydalanuvchilarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishdagi o‘rnini tahlil qildi. Tadqiqot natijalari ilovadan foydalanish ishtirokchilarning turli madaniyatlarga nisbatan hurmat va qiziqishini kuchaytirganini ko‘rsatdi. Shuningdek, foydalanuvchilarda madaniy farqlarni anglash, madaniyatlararo sezgirlikni rivojlantirish, madaniy xilma-xillikka ochiqlik hamda stereotip qarashlarni qayta ko‘rib chiqish kabi ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Bundan tashqari, ilova turli xalqlarning madaniy qadriyatlari, urf-odatlari, turmush tarzi va dunyoqarashlari haqidagi bilimlarni kengaytirishga xizmat qildi hamda foydalanuvchilarning boshqa madaniyatlarni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirdi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari ingliz tilida so‘zlashuv ilovalari madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda samarali vosita bo‘la olishini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Alptekin, Cem (2002). Towards intercultural communicative competence in ELT. ELT Journal, 56(1), 57–64.

Atay, Derin (2005). Reflections on the cultural dimension of language teaching. Language and Intercultural Communication, 5(3–4), 222–236.

Burston, Jack (2015). Twenty years of MALL project implementation: A meta-analysis of learning outcomes. ReCALL, 27(1), 4–20.

Kukulska-Hulme, Agnes (2016). Mobile assisted language learning [Revisited]. In A. Palalas & M. Ally (Eds.), The International Handbook of Mobile-Assisted Language Learning. Beijing: China Central Radio and TV University Press.

Miangah, T. M. & Nezarat, A. (2012). Mobile Assisted Language Learning. International Journal of Distributed and Parallel Systems (IJDPS),3(1).

Sharifian, Farzad (2013). English as an International Language: Perspectives and Pedagogical Issues. Bristol: Multilingual Matters.

Smith, Larry E. (1976). English as an international auxiliary language. RELC Journal, 7(2), 38–43.

Stockwell, Glenn (2010). Using mobile phones for vocabulary activities: Examining the effect of the platform. Language Learning & Technology, 14(2), 95–110.

Usmanova, Sh. Sh. (2018). Madaniyatlararo muloqot: O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 8–9.